



TILSHUNOSLIK FANINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI

Egamberdiyeva Dilnura Xurshid qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) G.Qurbonova

Har bir millatning milliy tili uning boyligi, millatning jamiyatdagi mavqeyini belgilovchi omillardan biridir. Shunday ekan tilimiz va uning rivojlanishi, umuman, tilshunoslik haqidagi fan va qarashlar juda muhim.

Tilshunoslik yoki Lingvistika tillarni o'rganuvchi fandir. Tilshunoslikning amaliy va nazariy turlari mavjud bo'lib, nazariy tilshunoslik tilning strukturasi (grammatikasi) va uning ma'nosi (semantikasini) o'rganadi. Grammatika — morfologiya (so'zlarning tuzilishi va o'zgarishi), sintaksis (so'zlarning iboralarga va gaplarga biriktrilish qoidalari) va fonologiya (tilni abstrakt tovushlar yordamida o'rganish) fanlarini qamrab oladi. Amaliy tilshunoslik, asosan, tilshunoslikda o'rganilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash bilan shug'ullanadi. Amaliy tilshunoslik tarkibiga xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatish kiradi.

Bugungi kunda tilimiz anchayin rivojlanib bormoqda. Yurtimizda tilning rivojlanishi uchun yaratib berilayotgan sharoitlar tub zamirida xalqning erkin yashashi, qulayliklarni yaratib olishi, dunyo hamjamiyatida o'z o'rnini topishi yotadi. Prezident qarori asosida chet tillarini va milliy tilni rivojlantirish, ushbu soha vakillarini qo'llab quvvatlash ishlari ham oxirgi yillarda avj oldi. O'rganuvchilarning mustaqil ravishda chet tilini bilish va egallash darajasini aniqlash uchun testga tayyorlanishlariga zarur ma'lumotlar tayyorlandi va Internet tarmog'iga joylashtirib qo'yildi.



Til – doimo rivojlanayotgan va dinamik hodisadir. Til rivojlanishi uchun milliy adabiyot, kino, san’at, fan mutanosib rivojlanishi zarur. Mutanosiblik esa milliy o’zlikni tashkil topishiga ijobiy ta’sir etadi. Ya’ni faylasuflar, lingvistlar va tarixchilar yordamida yaratiladigan yangi ma’nolar tilimizni boyitadi, kengaytiradi hamda dunyoqarashni shakllantiradi.

Tilimizga kirib kelayotgan har bir so’z filtdan o’tishi lozim. Yo’qsa tilimiz sofligini, aniqligini yo’qotadi. Hozir biz uchun endi kirib kelgan ba’zi neologizmlar bilan tanishtirib o’taman. Kompyuter xizmatlari va internet tamog’iga xos bo’lgan so’zlarga quyidagilarni kiritsak bo’ladi:

Kopirayting- reklama matnlar bilan mijoz topish

Bloglar matnga asoslangan bo’lib, odatda yozma kontent uchun mo’ljallangan veb-saytlar yoki platformalarda taqdim etiladi.

Vloglar videoga asoslangan bo’lib, odatda TikTok, YouTube, Vimeo kabi video almashish platformalarida yoki maxsus vlog-saytlarda joylashtiriladi.

Endi esa jamiyatga, hayotimizga tegishli bo’lgan neologizmlar bilan tanishib chiqamiz. Bunday so’zlar, asosan, jamiyat hayotiga oid kasb egalarining tilidan bizning tilimizga o’rnashib qolmoqda. **Dedlayn, demo, bulling, kognitiv, layfhak, taym-menejment** shular jumlasidandir. Ularning o’zbek tilida muqobili bo’lsada neologizmlarni ishlatishda davom etmoqdamiz. Taym –menejment so’zining o’rnida vaqtni taqsimlash, vaqtni boshqarish birliklarini qo’llasak bo’ladi, ammo ba’zi insonlar chet tilini o’rganganini atrofdagilarga bildirish uchun ham shu so’zlarni qo’llashmoqda. Bank xodimlari tomonidan ishlatilayotgan embossing so’zi esa qabartma degan ma’noni anglatadi. E’tibor beradigan bo’lsak, bank hisob kartalarida bo’rtib turuvchi raqamlar bor. Ana shu **embossing** deyiladi. Til rivojlanishi muhim, ammo o’zga tillar aralashuvisiz rivoj topsa, ilmiy izlanishlarda ham ruhiyat birmuncha aks etadi. Neologizmlarning tilimizga kirib kelayotgani yaxshi, ammo tilda xuddi o’sha ma’noni beradigan muqobili bo’lsa-yu biz faqat neologizmga murojaat etaversak tilning yo’qolishiga sababchi bo’lishimiz



mumkin. Biz “aqli telefon” demaymiz, “smartfon” deymiz. Chunki smartfon bizga o‘z nomi bilan chetdan kirib kelgan birlikdir. Lekin “izoh” so‘zi bo‘la turib, “komment” deb qo‘llash xato. Bunday misollar istaganimizcha keltirishimiz mumkin. Shunday ekan, nafaqat, ziyoli qatlam, balki butun millat bo‘lib tilimizni hurmat qilishga odatlanishimiz kerak. Ichki imkoniyatlardan til boyisa yanada uning mavqeyi oshadi.

Xulosa qilib aytganda, til rivojlanish bosqichida turar ekan, o‘zining asl ma’nolarini yo‘qotmagan holatda yangi so‘zlarni qabul qilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/docs/-2126032>
2. WikiPediya ma’lumotlari
3. <https://cyberleninka.ru/article>